2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 8-son

UDK: 37.013.42:373.3/.5

Mo‘minova Adolat Safarovna,
Termiz shahridagi 26-umumta’lim maktabi maslahatchisi

O‘QUVCHI SHAXSINING TA’LIMIY AGENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning nazariy va pedagogik asoslari yoritilgan. Ta’limiy agentlik o‘quvchining o‘z ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi, maqsad belgilashi, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi va ta’lim natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi bilan bog‘liq kompetensiyalar majmui sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda ta’limiy agentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid, refleksiv va mas’uliyat komponentlari ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchi agentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelning maqsad, mazmun, metodik, tashkiliy va natijaviy tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, tanlov, maqsad belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, formativ baholash, muammoli va loyiha asosidagi ta’lim kabi mexanizmlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi roli ham qayta ko‘rib chiqilib, uning bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatidagi vazifalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy agentlik, o‘quvchi shaxsi, pedagogik model, mustaqil ta’lim, ta’lim subyekti, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, motivatsiya, formativ baholash, loyiha asosidagi ta’lim, pedagogik mexanizm.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ АГЕНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и педагогические основы развития образовательной агентности личности учащегося в современном образовательном процессе. Образовательная агентность рассматривается как совокупность компетенций, связанных с активным участием учащегося в собственном образовательном процессе, постановкой целей, самостоятельным принятием решений, планированием и контролем собственной деятельности, а также ответственностью за результаты обучения. Выделены мотивационный, когнитивный, деятельностный, рефлексивный и ответственный компоненты образовательной агентности. Разработана педагогическая модель развития агентности учащихся, включающая целевой, содержательный, методический, организационный и результативный

компоненты. Проанализированы педагогические возможности механизмов выбора, целеполагания, самоуправления, рефлексии, формативного оценивания, проблемного и проектного обучения. Особое внимание уделено изменению роли учителя в образовательном процессе: от основного источника знаний к организатору, координатору и педагогическому консультанту самостоятельной деятельности учащегося.

Ключевые слова: образовательная агентность, личность учащегося, педагогическая модель, самостоятельное обучение, субъект образования, самоуправление, рефлексия, мотивация, формативное оценивание, проектное обучение, педагогический механизм.

PEDAGOGICAL MODEL AND MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL AGENCY

Abstract. This article examines the theoretical and pedagogical foundations of developing students' educational agency in the modern educational process. Educational agency is interpreted as a set of competencies associated with students' active participation in their own learning, goal setting, independent decision-making, planning and monitoring of learning activities, and responsibility for educational outcomes. The study identifies motivational, cognitive, activity-based, reflective, and responsibility-related components of educational agency. A pedagogical model for developing students' agency is proposed, consisting of target, content, methodological, organizational, and outcome components. The pedagogical potential of such mechanisms as choice, goal setting, self-regulation, reflection, formative assessment, problem-based learning, and project-based learning is analyzed. Particular attention is paid to reconsidering the teacher's role in the educational process. The teacher is viewed not only as a source of knowledge but also as an organizer, facilitator, coordinator, and supporter of students' independent learning activities.

Keywords: educational agency, student personality, pedagogical model, independent learning, learner agency, self-regulation, reflection, motivation, formative assessment, project-based learning, pedagogical mechanism.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki o'z ta'lim faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi, muammolarni hal etishi va o'z rivojlanish yo'nalishini belgilashi muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Axborot hajmining tez sur'atlarda ortib borishi, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelishi hamda kasbiy faoliyatga qo'yilayotgan yangi talablar shaxsning mustaqil o'rganish va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

An'anaviy ta'lim modelida ko'pincha o'qituvchi asosiy bilim manbai, o'quvchi esa bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida qaralgan. Bunday yondashuv ma'lum

darajada zarur bo‘lsa-da, bugungi ta’lim ehtiyojlari nuqtayi nazaridan o‘quvchining tashabbuskorligi, mustaqilligi va ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, so‘nggi yillarda xalqaro pedagogik tadqiqotlarda learner agency, ya’ni o‘quvchi ta’limiy agentligi tushunchasiga alohida e’tibor qaratilmoqda [6, 7].

Ta’limiy agentlik o‘quvchining o‘z ta’lim jarayonini anglab, unda faol ishtirok etishi, maqsad va vazifalarni belgilashi, mavjud imkoniyatlardan foydalanishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va o‘z faoliyati natijalariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Agentlik tushunchasi oddiy “mustaqillik” tushunchasidan kengroq bo‘lib, unda o‘quvchining nafaqat mustaqil faoliyati, balki o‘z faoliyatini anglash, rejalashtirish, boshqarish, baholash va zarur hollarda o‘zgartirish qobiliyati ham mujassamlashadi [2, 9].

O‘quchi ta’limiy agentligining rivojlanishi uning shaxsiy mas’uliyati, ichki motivatsiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, muammolarni mustaqil hal qilishi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchiga ta’lim jarayonida muayyan tanlov huquqini berish, uning fikrini tinglash va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kelgusidagi mustaqil hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan, o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli va mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish hamda ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik model va mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun ta’limiy agentlik tushunchasining pedagogik mazmunini ochib berish, uning asosiy komponentlarini aniqlash, o‘quvchi agentligini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rnini tahlil qilish hamda amaliy mexanizmlarni tavsiflash vazifalari belgilandi.

Material va metodlar. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va subyekt-subyekt yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik kuzatish kabi metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil yordamida ta’limiy agentlikning mazmuni va tarkibiy xususiyatlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali o‘quvchi agentligini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv ta’limiy agentlikni alohida ko‘nikma sifatida emas, balki motivatsiya, bilim, faoliyat, refleksiya va mas’uliyatning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Modellashtirish metodi asosida esa o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi.

Ta'limiy agentlik tushunchasining pedagogik mohiyati. Ta'limiy agentlik o'quvchining ta'lim jarayonida faol va ongli subyekt sifatida ishtirok etishini anglatadi [2, 7, 9]. Bunda o'quvchi unga berilgan topshiriqlarni shunchaki bajaruvchi emas, balki o'z faoliyatining maqsadi, mazmuni, usuli va natijasini muayyan darajada belgilay oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limiy agentlikning muhim xususiyati shundaki, o'quvchi o'z ta'lim faoliyatining natijalarini tashqi omillargagina bog'lab qo'ymaydi. Aksincha, u o'z imkoniyatlarini baholash, zarur resurslarni izlash, qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga intiladi. Shu sababli ta'limiy agentlik o'quvchining mas'uliyat, tashabbuskorlik, mustaqillik va refleksivlik kabi sifatlari bilan chambarchas bog'liq.

Ta'limiy agentlikni rivojlantirish jarayonida o'quvchiga "nima qilish kerak?" degan savol bilan bir qatorda "nima uchun buni qilaman?", "qanday usuldan foydalanaman?", "natijamni qanday baholayman?" va "keyingi faoliyatimni qanday takomillashtiraman?" kabi savollarni qo'yish imkoniyati yaratiladi. Natijada ta'lim jarayoni o'quvchi uchun faqat bilim olish jarayoni emas, balki o'z faoliyatini boshqarish va rivojlantirish jarayoniga aylanadi.

Ta'limiy agentlikning tarkibiy komponentlari. O'quvchi ta'limiy agentligi o'zaro uzviy bog'langan bir qator komponentlardan tarkib topgan murakkab pedagogik hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishida, avvalo, motivatsion komponent muhim o'rin tutadi. Mazkur komponent o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishi, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ya olishi hamda ularga erishishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ichki motivatsiyasi shakllangan o'quvchi o'quv topshiriqlarini faqat baho olish yoki tashqi talabni bajarish vositasi sifatida emas, balki yangi bilim va tajribalarni egallash imkoniyati sifatida qabul qiladi [3, 4]. Ta'limiy agentlikning kognitiv komponenti o'quvchining bilimlarni mustaqil egallashi, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli muhitda axborot oqimining kengligi o'quvchidan faqat kerakli ma'lumotni topishni emas, balki uning ishonchliligini aniqlash, turli manbalarni qiyoslash va zarur axborotni saralash ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etadi.

Faoliyat komponenti o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliy vaziyatlarda qo'llashi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirishi va belgilangan maqsad asosida amalga oshira olishi bilan bog'liq. Bunda o'quvchining tashabbus ko'rsatishi, muammoni hal qilish yo'llarini izlashi va o'z qarorlarini amalda sinab ko'rishi muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiv komponent esa o'quvchining o'z faoliyati va uning natijalarini tahlil qilishi, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashi hamda kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish uchun tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, mas'uliyat komponenti o'quvchining qabul qilgan qarorlari, amalga oshirgan faoliyati va erishgan ta'lim natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni his qilishi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi o'quvchining ta'lim jarayonida passiv ijrochi emas, balki o'z ta'lim

faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [1, 5, 10].

O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish pedagogik modelini o‘zaro bog‘langan maqsadli, mazmuniy, metodik, tashkiliy va natijaviy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu modelning maqsadli komponenti o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol subyektlik mavqeini shakllantirishga, uning mustaqil fikrlashi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi [2, 7]. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining ta’lim jarayonida tayyor bilimlarni qabul qiluvchi sifatidagi emas, balki o‘z rivojlanish yo‘lini anglaydigan va faoliyatini ongli tashkil eta oladigan shaxs sifatidagi o‘rnini kuchaytirishga qaratiladi.

Modelning mazmuniy komponenti o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish, axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topish, o‘z faoliyatini baholash hamda refleksiya olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim mazmuni o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilishi, shu bilan birga, ularning kundalik hayoti va real vaziyatlar bilan bog‘lanishi muhimdir. Bu esa o‘zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatini anglash va ulardan turli sharoitlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Metodik komponent ta’limiy agentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuv va metodlarni qamrab oladi. Jumladan, muammoli ta’lim, loyiha asosidagi faoliyat, tadqiqot topshiriqlari, hamkorlikda o‘qitish, o‘quvchilarga tanlash imkoniyatini beruvchi topshiriqlar, formativ baholash hamda refleksiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi [5, 7, 10]. Bunday metodlar o‘quvchini tayyor yechimni kutishga emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilish, turli variantlarni ko‘rib chiqish va o‘z qarorini asoslashga yo‘naltiradi.

Tashkiliy komponent o‘quvchilarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchiga mustaqil ishlash, guruhda hamkorlik qilish, o‘z qiziqishi va imkoniyatlariga mos ta’lim yo‘nalishini tanlash, shuningdek, o‘z faoliyatini rejalashtirish va boshqarish imkoniyatining berilishi uning ta’limiy agentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijaviy komponent esa amalga oshirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini o‘quvchilarning mustaqilligi, ichki motivatsiyasi, mas’uliyat hissi, refleksivligi, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarida yuz beradigan ijobiy o‘zgarishlar orqali baholash imkonini beradi. Shu tariqa, mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchi ta’limiy agentligini izchil va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik modelning yaxlitligini ta’minlaydi.

Natijalar. Tadqiqotning nazariy tahlili asosida o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi mavqeini

mustahkamlashi aniqlandi. Bunda o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayadi, mustaqil maqsad belgilash, o‘quv faoliyatini rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlari takomillashadi. Ta’lim natijalari uchun shaxsiy mas’uliyatning ortishi o‘quvchining o‘z faoliyatiga ongli munosabatini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlari mustahkamlanib, o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyati uchun kengroq imkoniyatlar yuzaga keladi.

O‘qituvchining rolini qayta ko‘rib chiqish. Ta’limiy agentlikni rivojlantirish o‘qituvchining rolini kamaytirmaydi, aksincha, uning pedagogik faoliyati mazmunini o‘zgartiradi. O‘qituvchi bilimning yagona manbai bo‘lishdan ko‘ra, o‘quvchining ta’limiy faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Bunday sharoitda o‘qituvchi o‘quvchiga tanlov imkoniyatini beradi, savol qo‘yish va mustaqil izlanishni rag‘batlantiradi, xatoni jazolash vositasi emas, balki o‘rganish va rivojlanish imkoniyati sifatida baholaydi. Shuningdek, o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish, refleksiya uchun sharoit yaratish, uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda faqat yakuniy natijaga emas, balki rivojlanish dinamikasiga e’tibor qaratish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, o‘quvchiga haddan tashqari erkinlik berish ta’limiy agentlikning avtomatik ravishda shakllanishini anglatmaydi. Tanlov imkoniyati aniq maqsad, belgilangan mezon, zarur resurslar va pedagogik ko‘mak bilan uyg‘unlashtirilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Ta’limiy agentlikni rivojlantirishning pedagogik shartlari. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Avvalo, sinfda psixologik jihatdan xavfsiz, o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan va xatodan qo‘rqmaydigan muhit yaratilishi lozim. Bunday muhit o‘quvchining tashabbus ko‘rsatishi va o‘z fikrini himoya qilishiga imkon beradi.

Shuningdek, o‘quvchiga real tanlov va qaror qabul qilish imkoniyatlarini berish, topshiriqlarni faqat reproduktiv xarakterda emas, balki muammoli, ijodiy va tadqiqotga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish muhimdir. Baholash jarayoni ham o‘quvchini passiv obyektga aylantirmasdan, uni o‘z natijalarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va keyingi faoliyatini rejalashtirishga jalb etishi kerak. Shu bilan birga, ota-ona, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi ta’limiy agentlikni rivojlantirish uchun muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi.

Ta’limiy agentlikni rivojlantirish mexanizmlari. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish uning ta’lim jarayonidagi mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas’uliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik mexanizmlarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Bunda o‘quvchiga tanlov imkoniyatini berish muhim ahamiyatga ega. Topshiriqni bajarish usuli, foydalaniladigan axborot manbasi yoki natijani taqdim etish shaklini tanlash o‘quvchining ta’lim jarayoniga daxldorlik

hissini kuchaytiradi. Masalan, bir mavzu doirasida taqdimot, loyiha, video, esse yoki infografika tayyorlash kabi variantlarni taklif etish mumkin.

Maqsadni mustaqil belgilash ham ta'limiy agentlikning muhim mexanizmlaridan biridir. Dars yoki loyiha boshida "Men nimani bilaman?", "Nimani bilishni xohlayman?" va "Bunga qanday erishaman?" kabi savollar o'quvchining o'z faoliyatini anglab, rejalashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchi vaqtni to'g'ri taqsimlash, zarur resurslarni tanlash, bajarilgan ishlarni nazorat qilish va zaruratga ko'ra o'z rejasiga o'zgartirish kiritishni o'rganishi lozim [5, 10]. Bunda kundalik reja, chek-list, individual ta'lim rejasi va elektron portfolio kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'limiy agentlikni rivojlantirishda refleksiya va formativ baholash ham muhim o'rin tutadi. Dars yoki topshiriq yakunida "Men nimani o'rgandim?", "Qanday qiyinchilikka duch keldim?" va "Keyingi safar nimani boshqacha qilaman?" kabi savollar o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. Aniq baholash mezonlari, o'zini o'zi va tengdoshlarini baholash, shuningdek, konstruktiv fikr-mulohazalar o'quvchining o'z natijalarini anglab, keyingi faoliyatini takomillashtirishiga xizmat qiladi [5, 10].

Muammoli va loyiha asosidagi ta'lim esa o'quvchini mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va amaliy muammolarga yechim topishga undaydi. Loyiha jarayonida o'quvchi muammoni aniqlaydi, maqsad belgilaydi, axborot izlaydi, faoliyatini rejalashtiradi va natijani taqdim etadi. Shu sababli ushbu yondashuv ta'limiy agentlikning bir qator tarkibiy jihatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchi agentligi. Raqamli texnologiyalar o'quvchi ta'limiy agentligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, interaktiv topshiriqlar, elektron portfolio va onlayn hamkorlik vositalari o'quvchiga ta'lim resurslarini mustaqil izlash, tanlash va ulardan foydalanish imkonini beradi.

Biroq raqamli vositalarning o'zi ta'limiy agentlikni shakllantirish uchun yetarli emas. O'quvchi axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ajratish, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va o'z vaqtini to'g'ri boshqarishni ham o'rganishi zarur. Shu bois raqamli kompetentlik zamonaviy sharoitda ta'limiy agentlikning muhim tarkibiy jihatlaridan biri hisoblanadi [6, 7].

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining o'rni. O'quvchining ta'limiy agentligi nafaqat ta'lim muassasasida, balki oiladagi muhit ta'sirida ham shakllanadi. Ota-onaning farzand fikrini tinglashi, unga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berishi va xatolarini rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishi o'quvchida mas'uliyat va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Shu sababli maktab va oila hamkorligi ta'limiy agentlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Ota-onalar farzandini doimiy nazorat qilishdan ko'ra, uning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, zarur holatlarda maslahat berishi va o'z fikrini shakllantirishiga imkon yaratishi maqsadga muvofiq.

Muhokama. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish masalasi ta’lim jarayonidagi an’anaviy “o‘qituvchi — bilim beruvchi, o‘quvchi — bilim oluvchi” munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bunda o‘qituvchining pedagogik ta’siri yo‘qolmaydi, balki uning mazmuni o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchi faoliyatini to‘liq nazorat qiluvchi shaxsdan ta’limiy jarayonni loyihalashtiruvchi va o‘quvchining mustaqil harakatlari uchun sharoit yaratuvchi pedagogga aylanadi.

Ta’limiy agentlikning rivojlanishida tanlov va erkinlik muhim bo‘lsa-da, ularni pedagogik maqsad va aniq chegaralarsiz tashkil etish kutilgan natijani bermasligi mumkin. O‘quvchi nimani tanlash, nima uchun tanlash va o‘z tanlovining oqibatlarini qanday baholashni bilishi kerak. Demak, agentlikni rivojlantirish “o‘quvchiga hamma narsani mustaqil bajarishga topshirish” emas, balki unga bosqichma-bosqich mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatish jarayonidir.

Shuningdek, o‘quvchi agentligini rivojlantirishda baholash tizimining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Faqat yakuniy bahoga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchini natija ortidan quvishga undashi mumkin. Formativ baholash esa o‘quvchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va keyingi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan, baholashning rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish ta’limiy agentlikni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Amaliy pedagogik tavsiyalar. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish uchun dars jarayonida o‘quvchilarga kichik, ammo real tanlov imkoniyatlarini berish maqsadga muvofiq. Masalan, topshiriqni bajarish shaklini tanlash, muammoni hal qilishning bir necha variantidan foydalanish yoki taqdimot usulini mustaqil belgilash o‘quvchining ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi.

O‘quvchilarning shaxsiy maqsadlarini belgilash va haftalik yoki mavzuli ta’lim rejalarini tuzish amaliyotini joriy etish ham samarali hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi tayyor reja berishdan ko‘ra, o‘quvchiga reja tuzishda yo‘naltiruvchi savollar va mezonlarni taqdim etishi mumkin.

Dars yakunida qisqa refleksiv faoliyatni tashkil etish ham ta’limiy agentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlari, duch kelgan qiyinchiliklari va keyingi faoliyatida amalga oshirishi kerak bo‘lgan ishlar haqida qisqacha fikr yuritishi mumkin.

Bundan tashqari, loyiha va tadqiqot topshiriqlarini muntazam qo‘llash, elektron portfolio yuritish, o‘zini o‘zi baholash va tengdoshlar bahosidan foydalanish, o‘quvchilarning tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda xatolarni o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilish uchun ijobiy pedagogik muhit yaratish tavsiya etiladi.

Xulosa. O‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchining ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’limiy agentlik o‘quvchining mustaqilligi bilangina cheklanmay, uning motivatsiyasi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini boshqarishi, refleksiya qilishi va ta’lim natijalari uchun mas’uliyatni his etishini ham qamrab oladi [1, 2, 5, 7].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’limiy agentlikni rivojlantirishning samaradorligi o‘quvchiga real tanlov imkoniyatlarini berish, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish, muammoli va loyiha asosidagi topshiriqlardan foydalanish, formativ baholashni rivojlantirish hamda refleksiv faoliyatni muntazam tashkil etish bilan bevosita bog‘liq. Bunda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchining o‘rniga qaror qabul qilish emas, balki uning mustaqil faoliyati uchun zarur pedagogik sharoitni yaratishdan iborat.

Shuningdek, ta’limiy agentlikning shakllanishida oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining fikrini hurmat qilish, uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va xatolarini rivojlanish imkoniyati sifatida baholash uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model ta’lim jarayonini o‘quvchining ehtiyojlari, imkoniyatlari va tashabbuslari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvdan samarali foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mas’uliyati va uzluksiz ta’lim olishga tayyorgarligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
2. Bandura A. Toward a Psychology of Human Agency // Perspectives on Psychological Science. — 2006. — Vol. 1, No. 2. — P. 164–180.
3. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. — New York: Plenum, 1985.
4. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. — 2000. — Vol. 55, No. 1. — P. 68–78.
5. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.
6. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing. — Paris, 2018.
7. OECD. Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. — Paris: OECD, 2019.
8. Biesta G., Priestley M., Robinson S. The Role of Beliefs in Teacher Agency // Teachers and Teaching: Theory and Practice. — 2015. — Vol. 21, No. 6. — P. 624–640.
9. Emirbayer M., Mische A. What Is Agency? // American Journal of Sociology. — 1998. — Vol. 103, No. 4. — P. 962–1023.
10. Zimmerman B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // Handbook of Self-Regulation / Ed. by M. Boekaerts, P. R. Pintrich, M. Zeidner. — San Diego: Academic Press, 2000. — P. 13–39.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694